

AHMAD MAHMUD HAZINIY ASARLARINING MANBAVIY TAHLILI

Shodmonova Marjona Hayotjon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 25.03.2026

Revised: 26.03.2026

Accepted: 27.03.2026

KALIT SO'ZLAR:

Ahmad Mahmud
Haziniy, manba,
tasavvuf, Qur'on, hadis,
mumtoz adabiyot, turkiy
nazm, ma'rifat, komil
inson.

Mazkur maqolada XVI asrda yashab ijod qilgan Ahmad Mahmud Haziniy asarlarining manbaviy asoslari tahlil qilinadi.

Shoir ijodida islomiy-ilohiy manbalar, tasavvufiy ta'limotlar, mumtoz sharq adabiyoti an'analari, turkiy va fors-tojik adabiy muhitining ta'siri, hamda xalq og'zaki ijodining o'rni ilmiy nuqtai nazardan yoritib beriladi. Tadqiqot davomida Haziniy asarlarida Qur'on oyatlari, hadislar, mashhur tasavvufiy asarlar va ulug' mutasavvif shoirlar merosidan foydalanish holatlari aniqlanadi.

Shuningdek muallif asarlarida Yassaviy va Naqshbandiya tariqati g'oyalari, oldingi mutasavviflar merosining aks etishi ilmiy asosda yoritib beriladi.

Kirish. Mumtoz turkiy adabiyot tarixida tasavvufiy yo'nalishda ijod qilgan adiblar merosi alohida ahamiyatga ega. Bu jarayonda Ahmad Mahmud Haziniy ijodi ham muhim ilmiy-adabiy manba sifatida e'tiborimizni tortadi. Keyingi yillarda Haziniy ijodiga bo'lgan qiziqish yanada ortdi desak adashmaymiz. Chunki Haziniy aslida Hisor hududida tug'ilgan bo'lsada keyinchalik Turkiyaga ko'chib ketgan va shu yerda ijod qilganligi sababli bizda Haziniy haqidagi ma'lumotlar juda kam edi. Bu holat esa uning ijodini yanada chuqurroq o'rganishimizga va izlanishimizga sabab bo'ladi. O'zbekistonda esa XIX-XX asrlarga kelib Haziniy haqidagi ma'lumotlarni Orif Usmon, Nodirxon Hasanovlar o'rgana boshlashgan va izlanishlar olib borishgan. Orif Usmon ham turk yozuvchisi Fuat Ko'prulu asarlari orqali Haziniy haqida ko'plab malumotlarni o'rgangan hisoblanadi. Bundan tashqari Nodirxon

Hasanov Haziniy haqida ilmiy izlanishlar olib borgan va bir qancha ma'lumotlar to'plagan. Bunga misol tariqasida Haziniyning hayoti va ijodi haqida kitob, ilmiy maqolalar va monografiyalar yaratgan. Haziniy Turkiyada yashab ijod qilgan bo'lsada o'z asarlarida tug'ilib o'sgan yerining madaniyatini, urf odatlarini yoritib bergan. Shu sababli ham uning g'azallarida madaniyatimiz, ananalarimizni ko'rishimiz mumkin. Haziniy o'z asarlarida ulamolarimiz va avliyolarimizni madh etgan. Shu jumladan o'ziham Yassaviy izdoshlaridan hisoblangan va Yassaviy ananalarini davom ettirgan holatda asarlar bitgan. Bu asarlaridan asosiylari va bizgacha yetib kelganlari quyidagilar hisoblanadi.

1. Manba'u'l-Ebhâr fî Riyâzi'l-Ebrâr (Yaxshilar bog'laridagi dengizlarning manbai) — hijriy 993 / milodiy 1586.

2. Hujjatü'l-Ebrâr dar Asmoyi Avliyo-yi Kibor (Ulug' avliyolarning ismlari orqali solihlar uchun dalillar) — hijriy 996 / milodiy 1589.

3. Tasallâ-yi Qulûb (Qalblarning taskini, tasallisi) — hijriy 996 / milodiy 1589.

4. Dû Marsiya (Ikki marsiya) — hijriy 996 / milodiy 1589.

5. Devoni Hazinî (Hazinî devoni) — hijriy 999 / milodiy 1591.

6. Javohiru'l-Ebrâr min Amvoji'l-Bihâr (Yaxshilarning dengiz to'liqlaridan olingan gaharlari) — hijriy 1002 / milodiy 1593.

7. Jomi'u'l-Murshidîn (Murshidlarni jamlagan kitob) — hijriy 1003 / milodiy 1594 (taxminan). Asosiy qism:

Bu asarlar ilmiy, madaniy, adabiy va tasavvufiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, tadqiqotchilar e'tiborini tortgan. So'nggi davrlarda Prof. Dr. Fuad Köprülü, Prof. Dr. Cihan Okuyucu, Doç. Dr. Metin Akar, Prof. Dr. Mustafa Kara, Doç. Dr. Necdet Tosun, Prof. Devin DeWeese, Dr. İbrahim Kunt kabi olimlar Haziniyning hayoti va asarlarining ayrim jihatlarini o'rganganlar. O'zbekistonda esa bu masala bo'yicha Prof. Dr. Orif Usmonning bir nechta maqolalari va Nodirxon Xasanovning ilmiy akademik desertatsiyasi va maqolalari mavjud.¹²⁰

Ahmad ibn Mahmud Hazini

Ahmad Mahmud Haziniy 1533-yilda hozirgi O'zbekiston va Tojikiston chegarasida joylashgan Hisor hududida tug'ilgan. 1596-yilda vafot etgan va dafn etilgan yeri aniq emas. Nasabi ona tomondan Arslonbobga, ota tomondan esa Quraysh qabilasiga borib taqaladi.

¹²⁰ Xasanov. N. XVI. Yüzyıl tasavvuf edebiyatında Hazini eserleri'nin yeri, (2025).

Fuat Ko'prulu "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" asarida Haziynini "Turkistonlik turklardan" deb qayd etadi¹²¹. (Ko'prulu, 369).

Haziniy yashagan davrda Movarounnahr hududining ijtimoiy-siyosiy ahvoli tinch holatda emas edi. Shu sababli ayrim ziyolilar ilm va san'at qadrlanadigan rivojlangan mamlakatlarga ko'chishga majbur bo'lganlar. Haziniy ham san'at va madaniyat ahli e'zozlangan Anadolu, xususan Istanbulga hijrat qilgan. Haziniy Istanbulda yashab ijod qilgan va ko'plab nodir asarlar yaratgan va hukmdorlarni nazariga tushgan.

Haziniy Sulton III Murad bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Murodxon tariqatlarni qayta jonlantirish niyatida ekanini sezgan Haziniy, sultonning Yassaviylikni rivojlantirishga qaratilgan alohida rag'batini bilan (Haziniy, 14a; Akar, 14) Ahmad Yassaviyning hayoti, hikmatlari hamda tariqat odob-arkonlari bayon etilgan "Javohir ul-Abror min Amvoji'l-Bihor" asarini hijriy 1002 (milodiy 1593) yilda yozib, sultonga taqdim etadi¹²².

Bu asari fors tilida she'riy usulda bitilgan bo'lib unda turli tariqatlar, zikr va uning turlari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tgan. Ayniqsa Yassaviyning nasl-nasabi, hikmatlariga alohida e'tibor qaratgan. Haziniy "Cevâhirü'l-Ebrâr" asarining muqaddimasida o'zini quyidagicha tanishtiradi:

"Sulton Ahmad ibn Mavlono Mahmud ibn Sulton ibn Haji Shoh al-Qurayshiy, so'ngra al-Iskandariy al-Hisoriy al-Movarounnahriy, Haziniy nomi bilan mashhur¹²³."

Yagona nusxasi Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan bu nodir asar, "Cevâhirü'l-ebrâr" Yassaviylik tadqiqotchilarining fikricha, Yassaviylik tarixi, odob-arkoni, pir va murshid odoblari, pir shayx va valiylik, zikr va zokirlik haqida keng ma'lumot beruvchi eng muhim manbalardan biridir. "Cevâhirü'l-ebrâr"ni ilk bor ilm ahliga tanishtirgan F. Ko'pruludur. U bu kitobdan foydalangan holatda o'zining "Turk adabiyotida ilk mutasavviflar" nomli asarini yozgan.

Tadqiqot metadalogiyasi. Mazkur maqolada Haziniy asarlarining shakllanishida asos bo'lgan manbalar tizimli tahlil qilinadi. Ahmad Mahmud Haziniy ijodining diniy manbalari o'rganiladi. Haziniy asarlarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar muhim manbaviy asos sifatida namoyon bo'ladi. Shoir o'z she'rlarida ilohiy haqiqat, tavhid, sabr, qanoat, tavba kabi tushunchalarni Qur'on mazmuniga tayangan holda badiiy talqin etadi. Ayrim baytlarda oyat va hadislarining bevosita iqtibos yoki ishora tarzida qo'llanishi Haziniyning diniy bilimlari yetarli darajada chuqur bo'lganini ko'rsatadi. Shuningdek asarlarida insonning

¹²¹ Xasanov, N. Hazini'nin "Hüccetü'l-Ebrâr" Adli Eseri Üzerine. (2025).

¹²² Xasanov, N. (2001). Ahmad Mahmud Xaziniy (hayotiva ijodi). Toshkent: "Fan" nashriyoti.

¹²³ Xasanov, N. Hazini'nin "Hüccetü'l-Ebrâr" Adli Eseri Üzerine. (2025).

ma'naviy kamoloti, sabr-qanoat,tavba,taqvo masalalarini Qur'oniy g'oyalar asosida ko'rsatib beradi.

Ahmad Mahmud Haziniy ijodi g'oyaviy jihatdan ma'rifiy, irfoniy xarakterga ega. Shuningdek,uning asarlari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, insonlarni tenglikka chaqiradi. Har bir inson xoh u boy bo'lsin, xoh kambag'al barcha tengligini va insonlar o'zlarining aqli va ilmi bilan kibrlanib ketmasligiga da'vat etadi. Haziniy asarlarida insonning ichki dunyosi, ruhiy kamoloti, axloqiy poklanishi asosiy mavzu sifatida ilgari suriladi. Misol uchun quyidagi misralarida bu mavzularni ko'rishimiz mumkin.

Xaq taollo yo 'linda murtozlar,
Mazhari asrori Xaq fayozlar.

Demak bundan anglash kerakki,insonning ruhi poklandimi ,ular Allohning ilohiy sirlariga mazhar bo'lishar va bu ruhiy fayzni boshqalargaham tarqata olishar ekan.

Haziniy asarlarida tasavvufiy timsollarni mohirona aks etgan. Uning asarlarida shayxlik, so'fiylik darajasiga yetishmoq uchun qanday yo'llarni bosib o'tish, bu yo'ldagi mashaqqatlar va kuchli sabr, matonat g'oyalariga, pand- nasihat, hikmatli fikrlarga alohida to'htalib o'tgan.Masalan quyidagi misralarda shayxlik maqomiga erishish darajasi mashaqqatini anglashimiz mumkin.

Haq yo'linda himmati oliy kerak,
Dargohinda nisbati holiy kerak,
Ikki olam ishratina boqmag'ay,
Juz Xudo har suvda suvdek oqmag'ay.

Mazmuni:Haq yo'lida yurmoq uchun baland himmat, kuchli qat'iyat va iroda kerakligi, insonning qalbi pok niyati xolis bo'lmog'i ,dunyo manfaatlaridan holi bo'lgan holatda qalbida faqatgina Alloh muhabbati va zikri bo'lishi lozimligi aytilmoqda.

Shuningdek Haziniy tasavvufning asosiy mavzularidan biri bo'lgan zikrgaham alohida to'htalib o'tgan va o'zining mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Hujjat-ul-Abror" asarida zikrning turlari haqida fikr va qarashlarini bildirgan. Bu asarida "zikr-i arra" nomi bilan mashhur bo'lgan jahriy zikr turini boshqa zikr turlaridan eng ustuni va afzali deb ta'riflab o'tgan. Misol tariqasida buni quyidagi misralarda ham ko'rishimiz mumkin.

Arra zikri zikri xosul-xosdur,
Mazxari sir mazxari ixlosdur,
Murishi ilmi laduniydur bu zikr,
Tabiyat qil muqtadoya qilma fikr.

Mazmuni; Arra zikri komil insonlarning zikridir. Bu zikr qalbni poklaydi va ilohiy sir-asrorlarni ochadi .Alloh tomonidan qalbgga beriladigan juda kuchli va maxsus ilmga yetaklaydi. Bu mashaqqatli yo'lda inson adashmasligi uchun ustozga ergashishi keraligi aytilmoqda.

Haziniy asarlarini o'ziga xos uslubda yozgan bo'lib bevosita tasavvufga bog'lagan. Uning ijodining markazida komil inson konsepsiyasi turadi. Haziniy fikricha, komillikka erishish:nafsni tiyish, axloqni poklash, ilm va hikmatga amal qilish orqali amalga oshiriladi. Bu qarashlar Yassaviy va Naqshbandiy tasavvuf maktablari g'oyalari bilan mushtarak bo'lib, Haziniy ijodining falsafiy asosini qamrab olgan.

Uning ijodiy merosida badiiy-uslubiy xususiyatlarga juda ko'p duch kelamiz. Ahmad Mahmud Haziniy badiiy jihatdan o'z asarlarida : sodda va ta'sirchan til, hikmatli baytlar, ramziy va tasavvufiy obrazlar, xalqona ifoda vositalaridan foydalanishi bilan ajralib turadi. Bu holat uning asarlarining keng kitobxonlar qatlamiga tushunarli bo'lishini ta'minlagan. Haziniy ijodi didaktik- tasavvufiy ruhda bo'lib, u muridlarni to'g'ri yo'lga boshlash, tariqat odoblarini targ'ib qilishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili . Haziniy asarlarini o'rganish nafaqat adabiy- badiiy, balki manbaviy jihatdan ham muhim bo'lib ularning qaysi diniy, falsafiy va adabiy manbalarga tayanib yaratilgani masalasi alohida tadqiqot talab etadi.

Sharq mumtoz adabiyotida shoir ijodining manbaviy asoslarini o'rganish adabiy-estetik qarashlar, g'oyaviy yo'nalish hamda tarixiy-madaniy muhitni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ahmad Mahmud Haziniy ijodi ham ana shunday keng manbaviy qatlamga ega bo'lib, unda diniy, tasavvufiy va adabiy manbalar uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

Ahmad Mahmud Haziniy o'z asarlarida axloq, ma'rifat, komil inson g'oyalarini badiiy-falsafiy talqin etgan. Shoirning nafaqat ijodini o'rganish balki uning hayotini o'rganish ham o'zbek mumtoz adabiyotining g'oyaviy-estetik manzarasini to'laroq anglash imkonini beradi. Haziniy diniy ilmlarni, xususan Qur'on, hadis, fiqh va tasavvuf ilmlarini chuqur o'rgangan hisoblanadi va ularning badiiy talqini o'zining asarlarida yaqqol ko'rsatib bera olgan . Shoirning hayoti tasavvufiy muhit, tariqat an'analari va ma'rifat targ'iboti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Natijalar. Haziniy ijodining yetakchi manbalaridan biri tasavvufiy adabiyotdir.Shuning uchun ham uning ijodida hadislar muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Haziniy asarlarining g'oyaviy yo'nalishini kamtarlik, sabr, halollik ,ixlos kabi tushunchalar belgilaydi. Shoir asarlarida Naqshbandiya tariqati g'oyalari, xususan, botiniy poklanish, zikr, riyozat va komil inson konsepsiyasi asosiy o'rin egallaydi. Bu jihatdan Ahmad

Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy asarlari Haziniy uchun muhim manba vazifasini bajargan. Shoir ularning ramziy obrazlari va tasavvufiy istilohlaridan ijodiy foydalanadi. Ahmad Mahmud Haziniy mumtoz turkiy va fors-tojik adabiyoti an'alarini chuqur o'zlashtirgan ijodkor sifatida namoyon bo'ladi. Uning she'riyati shakl va mazmun jihatidan g'azal, qasida, masnaviy kabi mumtoz janrlarga tayangan. Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Sa'diy singari mutafakkir shoirlar ijodi Haziniy poetik tafakkurining shakllanishida muhim adabiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa hikmat va nasihat ruhida she'rlarida Yassaviy an'anasini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek Haziniy ijodida xalq og'zaki ijodiga xos sodda ifodalar, hikmatli so'zlar, didaktik unsurlarni uchratamiz. Bu holat uning asarlarini ommaga keng yoyilishiga va tarbiyaviy ahamiyatini oshishiga xizmat qilgan. Haziniy asarlarning aksariyati qo'lyozma holida saqlangan. Nusxalari bayozlar va majmualar tarkibida uchrashi mumkin. Tili: mumtoz turkiy va qisman forsiy tilda hisoblanadi. Haziniy o'z asarlarida insonparvarlik, axloqiy poklik, Allohga yetishish yo'li, tasavvufiy hikmatlar, hayotning mohiyati kabi mavzularni yoritib bergan ijodkor hisoblanadi.

Xulosa

Ahmad Mahmud Haziniy asarlarining manbaviy tahlili shuni ko'rsatadiki, uning ijodi Qur'on va hadis, tasavvufiy-falsafiy meros, mumtoz adabiy an'ana hamda xalq og'zaki ijodi kabi turli manbalar sintezi asosida shakllangan. Ushbu manbalar Haziniy ijodining g'oyaviy-badiiy mukammalligini ta'minlab, uni mumtoz adabiyotda o'ziga xos o'rin egallagan ijodkor sifatida namoyon etadi. Uning ijodi ko'p qatlamli manbalar tizimiga ega. Diniy, tasavvufiy va mumtoz adabiy manbalar shoir dunyoqarashi va badiiy tafakkurining shakllanishida asosiy o'rin tutgan. Xulosa qilib aytganda, Ahmad Mahmud Haziniy o'zbek mumtoz adabiyotida tasavvufiy-ma'rifiy yo'nalishning muhim vakillaridan biri hisoblanadi.

Uning hayoti tasavvufiy tafakkur bilan, ijodi esa Qur'on va hadis, tasavvuf falsafasi hamda mumtoz adabiy an'alar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ham uning hayotini va boshqa asarlarini yanada chuqurroq o'rganib, ijodini turkiy tildan tarjima qilgan holatda keng ommaga tatbiq etilsa maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Shoir merosi bugungi kunda ham ma'naviy-axloqiy tarbiya nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Uning "Hujjat ul-Abror" asarida tilga olingan Markaziy Osiyolik mutasavviflar va g'oyaviy oqimlar shubhasiz, adabiyotimiz tarixini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Haziniy, Ahmad Mahmud. Javohir ul-abror. – Qo‘lyozma nusxa.
- 2) Haziniy, Ahmad Mahmud. Tariqatnoma. – Qo‘lyozma nusxa.
- 3) Haziniy, Ahmad Mahmud. Tasavvufiy risolalar majmuasi. – Qo‘lyozma manbalar asosida.
- 4)Yassaviy, Ahmad. Devoni hikmat. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2004.
- 5)Xasanov, N. (1998). Haziniyning hayoti va asarlari haqida. O‘zbek tili va adabiyoti
- 6) Xasanov, N. (2001). Ahmad Mahmud Xaziniy (hayotiva ijodi) .Toshkent: “Fan” nashriyoti
- 7) Xasanov. N. Hazinî’nin “Hüccetü’l-Ebrâr” Adlı Eseri Üzerine. (2025).
- 8) Xasanov. N. XVI. Yüzyil tasavvuf edabiyatinda Hazini eserleri’nin yeri, (2025).